



**BADIY ADABIYOT TARG'IBOTI VOSITASI ORQALI KITOBOXONLAR
MA'NAVİYATINI YUKSALTIRISHDA KUTUBXONACHINING
VAZIFALARI**

Hamdamova Dilshoda

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Kutubxona –axborot faoliyati"

mutaxasisligi 1-bosqich magistranti

holida.hamdamova1274@gmail.com

Annotatsiya: Ma'naviyatni yuksaltirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kitob mutolaasi insonni ma'naviy kamolot sari yetaklashi, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni nihoyatda beqiyosdir. Adabiyotning ma'naviy yuksaltirishdagi, insonlarning ma'naviy kamolotga yetishidagi badiiy asarlarning ahamiyati haqida fikr yuritilib, bu borada maktab va kutubxona tizimining uzviy bog'liqligi, tarbiya jarayonida, insoniy tuyg'ularni shakllantirishda, adabiyot targ'ibotlaridan foydalanish lozimligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, ma'naviyat, adabiyot, badiiylik, kitobxonlik, kutubxona, vatanparvarlik, ta'lif, adabiyot.

Qadim zamonalardan beri oila va jamiyat a'zolarining asosiy vazifalaridan biri: farzandga ta'lif va tarbiya berish, ularning jamiyat hayotida ma'naviy hamda axloqiy kamol toptirish bo'lib kelgan. Zero, bolaga qanday tarbiya berilsa, kelajakda mana shu tarbiyaga munosib inson bo'lib voyaga yetadi. Shu qatorda tarbiya jarayonida boshqa sohalar singari kutubxonalarining ham o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ayniqsa, bugungi kunda amalga oshiralayotgan islohotlar negizida ham kutubxona sohasiga, kitobxonlik doirasiga qaratilayotgan e'tibor ham buning isbotidir. Yoshlar ongiga vatanparvarlik g'oyalarini singdirish, ma'naviy dunyosini boyitish, shuningdek yot unsurlardan himoya qilishda badiiy adabiyotni o'rni ahamiyatga molikdir. Shu maqsadda yoshlari gavjum joylaridan kutubxona maskanlari tashkillanganligi bejiz emas, albatta. Maktab, mahalla, oila tizimi dasturida o'zini o'zi boshqarish organlari qoshida ham kutubxonalar tashkil qilingan. Bundan ko'rinish turadiki, nafaqat yoshlar balki keksa nuroniyalar, barcha yoshdagi insonlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkillanishiga zamin yaratmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdan bosh maqsad madaniyatli kishini tarbiyalashdir. Madaniyatli kishini tarbiyalashda san'at va adabiyotning ahamiyati kattadir. Ayniqsa, badiiy adabiyot asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bilamizki, kitob o'qishga bo'lган talablar kamayib bormoqda. Bunga sabab XXI asr komyuter texnologiyalari asri bo'lgani uchun barcha yoshlarimiz internet



va boshqa ijtimoiy tarmoqlar bilan ovvora bo'lib qolishmoqda. Yoshlarimizni mana shunday o'rgimchak to'ridan qutqarishning birdan bir yo'li bu - badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdir^[1]. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020 - yil 14 - dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda. Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta'lif muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Adabiyot vatanparvarlarni voyaga yetkazadi va tarbiyalaydi, shuning uchun ham kitobga mehr, mutolaaga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish masalasi bugun har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning zamirida kitobxon o'quvchining dunyoqarashi kengayishiga, atrofga, insonlarga nisbatan munosabatining o'zgarishiga zamin yaratadi. Bu borada kitobxon o'quvchini tarbiyalovchi, ta'lif va bilim beruvchi asosiy manba bu kitob bo'lib, u fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lganligi sababli ham xalqimiz uni nonday aziz va mo'tabar deb har doim qadrlab kelgan. Kitobxonlik madaniyatini va badiiy adabiyot targ'ibotini yuksaltirishda esa axborot kutubxona muassasalari muhim rol o'yaydi.

Shuning uchun ham ta'lif so'ziga to'xtalganda, kutubxona va kitob so'zlarini chetlab o'ta olmaymiz. "Ta'lif va kutubxona" ikkita ajralmas tushuncha bo'lib, ular bir-biri bilan asosli va sinxron bog'liqdir va birga mavjuddir. Birini boshqasidan ajratib bo'lmaydi, ikkinchisisiz birining mavjudligi imkonsizdir. Ularning hech biri o'z-o'zidan maqsad emas, balki ikkalasi birgalikda yakuniy maqsadga erishish vositasidir^[1]. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-madaniy vaziyatning murakkabligiga qaramay, o'smirlarni axloqiy tarbiyalash uchun asos bo'lgan ta'lif va tarbiya jarayoni undagi insonparvarlik qadriyatlari har doim jamiyat pog'onisida yuqori o'rinda bo'lib kelgan^[2].

Agar biz so'nggi yillarda ro'y berayotgan hodisalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviy-axloqiy madaniyatning ko'rinishi tubdan o'zgarib borayotganligiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi kunda jamiyat hayotidagi dolzarb muammolardan biri bu yoshlar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning susayib ketayotganlidir deb yaqqol aytishimiz mumkin.



Qadriyatlarni asrab-avaylash va yetkazish usuli sifatida insonning madaniyatdan yiroqlashuvi mavjud bo'lib, yosh avlod o'rtasida ezgulik va yomonlik tushunchasi ham shunga mos ravishda o'zgarib bormoqda. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi - jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda maktab davirdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, ma'naviy tuyg'ularni yuksaltirishga katta ehtiyoj bor.

Men kutubxonachi mutaxasisi sifatida shuni aytishim mumkinki, yosh kitobxonlar badiiy matnni qanday hissiyot bilan qabul qilishlari, uni qanchalik chuqur anglashlari, adabiy qahramonlarga hamdardlik bildirishlari qiziqadilar va asarni o'qish mobaynida uning ichki kechinmalari bilan birgalikda bo'lishni xoxlaydi. Shuning uchun ham kutubxonachi kitobxon o'quvchining badiiy asarni mutoalaa qilish orqali ma'naiy ongni yuksaltirishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak :

- Kutubxonachi kelgan kitobxon o'quvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishi va maktab o'quvchilarida badiiy adabiyotni o'qishga bo'lган qiziqishlarini uyg'otishi kerak.
- Badiiy asarlar targ'iboti yordamida yangi adabiyotlar bilan tanishtirish, asar janrlari asar g'oysi, tasviriy vositalarini yoshiga mos xolda tushunish, o'z qarashlari, mulohazasini bildirishga o'rgatish.
- O'quvchilarda badiiy asar namunalarini tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ishtiyoyqini tarbiyalash, o'qilgan asarlar yuzasidan bahsmunozalar o'tkazish davomida kerakli xulosalarga ega bo'lish.
- Hissiy tasavvur bilan o'qitishga jalg qilish. Asar qahramonlarning his-tuyg'ulari olamini anglash, ular bilan birga hayot kechirish, o'zini kitobning istalgan qahramoni sifatida tasavvur qilish.
- Adabiy qahramonlar harakatlarini muhokama qilish, voqeliklarni ko'z oldiga keltirish maqsadida yakka va guruhli tartibda ovozli o'qishlar tashkil qilish.

Maktab kutubxonasining asosiy maqsadi - hayotning har qanday sohasida ijod qilishga tayyor, tafakkur va his-tuyg'ularni, mehribon va faol shaxsni shakllantirish. O'quvchiga yaxshi kitob topish va tavsiya etish kutubxonachi va adabiyot o'qituvchisining vazifasidir.



Badiiy adabiyotlarni targ'ib qilish va ulardan foydalanish o'rta maktab o'quvchilarida vatanga muhabbat, maqsadlilik va qiziquvchanlik, mehr-oqibat, sezgirlik va atrofdagi dunyoga muhabbatni belgilaydigan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Badiiy asarlar odamlarning ko'p avlodlari uchun ma'naviy-axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga oladi, bizda eng yaxshi insoniy fazilatlar: halollik, tuyg'u teranligi, qadr-qimmat, ma'naviyat, fuqarolik fazilatlarini tarbiyalaydi^[4].

Maktab bilan kutubxonaning umumiy maqsadi: bolalarni barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Kutubxona o'zining barcha vositalari bilan kitobxonalarini o'qish xarakteriga va shu o'qish orqali tarbiyanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ularda kitob va uni o'qishga qiziqtirish, kitobxonlar ongini yuksaltirish. Yosh avlodni axloqiy tarbiyalash jamiyatning eng muhim vazifasidir, chunki axloq insoniylikning eng oliy o'lchovidir. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda maktab va kutubxona kuchlarini birlashtirishi kerak^[3].

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar, ma'naviyatni yuksaltirishga, barkamollik sari yetaklashga yordam beradi. Shunday ekan, jamiyatdagi har bir inson bolalarda insonparvarlik tuyg'ularini, axloqiy g'oyalarni shakllantirish, shuningdek, bu g'oyalarni hayotga va ongga o'rgatish uchun badiiy asarlarni tanlashga, badiiy asarlarni o'qish va suhbatlar o'tkazish metodikasiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Badiiy adabiyotdan insonning insoniy fazilatlarini, insoniylik, mehr-oqibat vaadolatni rivojlanadirish vositasi sifatida ko'proq foydalanish kerak, badiiy adabiyotning mazmuni bo'yicha suhbatlar madaniyatning axloqiy motivlarini shakllantirishga yordam beradi^[5].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, badiiy adabiyot o'zining mohiyati bilan bunyodkorlikka undagan, mehr-shafqat, odamiylik, vatanparvarlik, ezgulik kabi ulug' g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan manba hisoblanadi^[6]. O'zbek adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri Abdulla Qahhor aytganlaridek "Adabiyot- atomdan kuchli". Darhaqiqat, adabiyot o'qigan inson har tomonlama o'zgalarga ibrat bo'la oladigan shaxs sifatida kamo topadi, insonlar orasida o'zining nufuziga ega bo'ladi. Kitobxonlik yoshlarning ma'naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo'lga boshlaydi, hayotning ulug'vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Badiiy adabiyotlarni targ'ib qilishning ommaviy usullari. Metodik qo'llanma. T., 1989.
2. Yo'ldoshev. E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish: O'rta maxsus o'quv yurtlari kutubxonachilik bo'limi talabalari uchun o'quv qo'llanma.- T.: O'zbekiston, 2002.- 9-12- bet.
3. Berdiyeva Z. Sh. Kutubxonashunoslik:kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma .-T.: Ilm-ziyo, 2013.-222-226-bet.
4. Balatukova, Z. I. Badiiy adabiyotning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rni/ Z. I. Balatukova. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2015. - No 15 (95). - S. 661-663.
5. <https://cyberleninka.ru>
6. <https://www.sciencedirect.com>
7. <https://yamal-obr.ru>
8. <https://www.dissercat.com>
9. <https://studopedia.ru>
- 10.<https://www.oriens.uz>